




ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ЎЗБЕКИСТОННИНГ МАЪНАВИЙ, ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАРИХ ФАНИ (янгича ёндашувлар)



*Республика илмий - амалий
конференцияси материаллари*

Қарши -2018



90	Z. A. To'lanova	Amir Temur davri tarixini o'rganishda Klavixo "kundaligi"ning ahamiyati	186
91	З.Т.Мамбетниязова	Из истории освоения южного приаралья	189
92	З. Э. Холиков, У. И. Исаров	Эски термизнинг мудофаа иншоотлари археологик тадқиқот объекти сифатида	191
93	Д.О.Ҳайдаров	Нуробод ресурс шаҳар сифатида	192
94	A.S.Majidov, M. J. Sharipov	Kitob va shahrisabz bекliklarining rus qo'shinlari tomonidan egallanishiga doir	194
95	У. Б. Мирзалиев	Мустақиллик йилларида демографик муаммоларга давлат эътибори	197
96	Ж.Бердиев, Ш.Норматов	Ўрта Осиёнинг тош давридаги табиий-иктисодий маконлари тарихига доир баъзи мулоҳазалар	199
97	О. Бўриев, Ф. Шарипов	Муқаддас заминни эъзозлаш билан боғлиқ азалий қадриятлар	201
98	Х. Ғ. Ойназаров, Қ. Б. Тошалиев	Зараутсой қоятош суратлари тарихий манба сифатида	204
99	Ф. Эгамбердиев	Қариши воҳаси илк ўрта аср қишлоқ маданиятини ўрганишда археологик манбаларнинг ўрни	205
100	М. Б. Маматова	Чай в Узбекистане: чайные традиции и обычаи	207
101	V. E. Abirov	Zamonaviy sharoitda o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasining o'rganilishi	209
102	Ф. Эгамбердиев	Қариши воҳасидаги археологик тадқиқотлар тарихидан (С.К.Кабанов кузатувлари асосида)	210
103	Б. Аҳмедов	Ўзбекистонда қорақўлчилик соҳасидиги илмий-тадқиқот ишлари ва унинг натижалари	211
104	Ҳ.Қулдашев	Жадидчиликда таълим ва тарбия масаласи	213
105	М. Б. Якубова	Накшбандийский орден и его специфические особенности в историческом контексте	214
106	Б.Тошпўлтов	Оила - жамиятнинг негизи	217
107	A.Davronov	Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari	219
108	У. Мўминов	Илк ўрта асрлар даври термиз шаҳри ва вилоятининг тарихий географик шарҳи	220
109	М.Усмонов	Ўзбек кўнғиротлари муаммоси тарихшунослиги ва этник тарихни ўрганиш методологияси	223
110	А. Ҳасанов	Ўрта аср тарихий манбаларда кеш шаҳри вилоятининг шарҳи	226
IV ШУЪБА			
БАҒРИКЕНГЛИК – ЎЗБЕКИСТОНДАГИ МИЛЛАТЛАРАРО ВА ДИНИЙ МУНОСАБАТЛАР ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИНИНГ АСОСИ			
111	Р. Ҳ.Муртазаева	Ўзбекистон – бағрикенглик тамойиллари уникал тарзда сақланган ҳудуд	229
112	Ф.А.Ахмедшина	Воспитание культуры толерантности и гуманизма: важнейшая стратегическая задача образования в ххi веке	232
113	Э. Ҳ. Бобомуродов	Миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик тинчлик ва тараққиёт омилдир	233
114	К.Д.Саипова	Толерантность узбекского народа к эвакуированным и депортированным народам в годы войны над фашизмом	235
115	X. Nizomov	Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati	237
116	Х. Х. Худойбердиев, Ш. М. Рахматова	Миллатлараро тотувлик – тараққиётимиз мезони	240
117	Р. Р. Имамкулов	Некоторые проблемы культуры межнациональных отношений общения в условиях билингвизма.	243
118	Ё. Тошпўлатов	Ҳаётбахш бағрикенглик	245

фитлик бир-бирларини чуқурроқ тушуна боради, ўзаро кадрлашни ўрнига қўйиб, ўзаро баҳбатан кечиримли бўлишади. Пировардида эр - отага, хотин - онага айланади, фарзанд-ларни тарбиялаб, жамоага қўшишади, турли туман тоифа орзу - хаваслар кўришади. Шу ҳафтада оила инсон ҳаётига тўқислик бахш этади ҳамда жамиятнинг мукаддас ва мустаҳкам қисмига айланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбек тилининг изохли луғати. 3-ж. Т., 2007. Б.97-98
2. Фасмер Ж. Этимологический словарь русского языка Т3.М 1971.с.800
3. Фалсафа луғати, „Ўзбекистон“, 1973. Б.355
4. О.Сафаров, М.Маҳмудов Оила маънавияти. Т., 2009. Б.17
5. Қуръони Карим. Ўзбекча изохли таржима. Таржима ва изохли сўзлар муаллифи Алоуддин Мусур. Т. "Чўлпон", 1992. Б.52

QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ULARNING NATIJALARI

A.Davronov – QarshiDU

Qashqadaryo viloyatida sayyohlarni jalb qilish uchun 1311 ta madaniy-meros ob'ektlari bo'lib, shundan 200 ta arxitektura yodgorliklari, 1041 ta arxeologiya yodgorliklari, 43 ta haykallar, 17 ta taqqatga sazavor joylarni tashkil etadi.

Sayyohlarni qabul qilish uchun hozirgi kunda 32 ta mehmonxona faoliyat olib borilmoqda. Shundan: Qarshi shahrida 21 ta, Shahrisabz shahrida 2 ta, Koson tumanida 2 ta, Muborak tumanda 2 ta, Dehqonobod tumanida 2 ta, Kitob tumanida 2 ta va Mirishkor tumanida 1 ta mehmonxona joylashgan. Bundan tashqari hozirgi kunda viloyatda 10 ta sayyohlik firmalari faoliyatda bo'lib, turizm mavsumni ajoyib tarzda o'tqazishmoqda.

Turizm sohasida viloyat tadbirkorlari xorijiy va mahalliy turfirmalar bilan 200 dan ortiq shartnomalar imzoladilar. Shu jumladan, birgina "Kitob-sayyoh" turfirmasi misolida oladigan hisobga, chet ellik turli firmalar bilan 20 dan ortiq shartnoma imzolashga muvoffaq bo'ldi.

Viloyatimiz stendini ko'rish uchun 13 aprelda minglab tomoshabinlar tashrif buyurdi. 2017 yil 13 aprelda O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Qozog'iston Madaniyat va sport vazirligi o'rtasida turizm sohasida memorandum imzolandi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zolari va Qozog'iston Madaniyat va sport vaziri, hamda Qozog'iston Respublikasining O'zbekistondagi Muhtor elchisi Qashqadaryo viloyati stendini ko'rish uchun tashrif buyurdi.

2017 yilning 14 aprelda "Ipak yo'li lazzati" nomli taomlar festivali bo'lib o'tdi. Festivalda Qashqadaryo viloyati o'zining palov va tandir go'shti bilan qatnashdi va festival qatnashchilarini taomlar bilan siyladi.

2017 yil 22 aprelda "Amir Temur hayoti va Temuriylar davlati" haqida hujjatli ko'rsatuv tayyorlash maqsadida Buyuk Birtaniyaning "Sky TV" va Avstraliyaning "Foxtel" kanallarining buyurtmasi bilan Avstraliyaning "David Adams Films" kompaniyasi syomkachi guruhi Shahrisabz va Kitob tumanlarini videotasvirga olish uchun tashrif buyurdi. Shahrisabz va Kitobning tog'li, ekoturizm hududlari mehmonlarni juda hayratga soldi.

Bugungi kunda Respublikamizda Turizm sohasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar, jumladan, 2016 yil 2 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4861 sonli "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosi va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlisning 35-sonli bayonida berilgan ko'rsitmalar ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari ijrosini ta'minlash, viloyatga mahalliy va xorijiy sayyohlarni ko'proq jalb qilish uchun, bugun shahrimiz tarixiy markazida joylashgan, XV-XVI asrlarga bunyod etilgan "Chorsu" majmuasida "Milliy san'at galariyasi" o'z ishini boshladi.

Ushbu "Milliy san'at galariyasi"ni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad, Respublika iqtidorli yoshlarini bobokolonimiz, Buyuk Amir Temur vatani bo'lgan Shahrisabz shahriga jalb etish, o'zbek xalqining milliy va amaliy san'at namunalari bilan yoshlarni tanishtirish, xorijiy sayyohlarga Shahrisabz shahrining qadimiy hunarmandchiligining eng asl namunalari ko'rsatish. Shahrisabz shahridagi hunarmandlar brendini yaratishva shu orqali mamlakatimiz davrug'ini butun dunyoga tanitish.

Qashqadaryo viloyatida ekoturizm sohasini rivojlantirish uchun, Shahrisabz tumanidagi ichki turizmni rivojlantirish, xorijiy sayyohlarni ko'proq jalb etish maqsadida "Village Eco Park" majmuasi qurilishi boshlandi. Ushbu loyiha mehmonxona, restoran, kafe, sport maydonchalari va atraksionlarni o'z ichiga oladi. Loyiha 2018 yil ohiri bilan o'z faoliyatini boshlaydi.

"Qashqadaryo viloyati turizm sohasini 2017-2018 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi" asosida 2018 yil oxiri bilan viloyatdagi mehmonxonalar soni 45 taga etadi. Jumladan Qashqadaryo shahrida 8 ta yangi zamonoviy mehmonxonalar, Shahrisabz shahrida 5 ta uy mehmonxona va 2 ta yangi zamonoviy mehmonxonalar o'z faoliyatini boshlaydi. Bu mehmonxonalar mehmonxona xizmati, mehmonxona xo'jaligi yo'nalishlarida zamon talablariga, jahon standartlariga to'liq javob berib, ularning tashqi qiyofasi zamonoviy arxitekturaviy loyihalari asosida bunyod etiladi.

Qashqadaryo viloyatida agroturizm yo'nalishida meva-sabzavotni qayta ishlash va eksport qilish imkoniyatlari juda yuqori. Shahrisabz shahrida tashkil etilayotgan "Shahrisabz" logistika markazi ushbu maqsadlarga xizmat qiladi. Sobiq pillachilik fabrikasi o'rinda ish boshlayotgan logistika markazi meva-sabzavotlarni yitishtirish, tayyorlash, qabul qilish, saralash, qayta ishlash, jahon talablariga mos laboratoriyalarda tekshirish, qadoqlash hamda ho'l, muzlatilgan va qurilgan holda eksport qilish bilan shug'ullanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks o'rganish natijalari bo'yicha yig'ma-tahliliy material. T., 2017.108 b.

ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТЕРМИЗ ШАХРИ ВА ВИЛОЯТИНИНГ ТАРИХИЙ ГЕОГРАФИК ШАРҲИ

У. Мўминов – ҚаршиДУ маълумоти

Термиз шаҳри Жанубий Ўзбекистоннинг йирик ва қадим тарихига эга шаҳарлардан биридир. Амударёнинг ўнг қирғоғида, муҳим кечув бўйида жойлашган Термиз шаҳри I мингйиллик ўрталаридан бошлаб Шимолий Бактриядаги энг йирик шаҳар сифатида ташланади[1]. Бу шаҳар антик давр ва айниқса илк ўрта асрларда Ўрта Осиё ҳудудларининг ички ва ташқи алоқаларида, хусусан, Бактрия пойтахтини Шимолий Бактриядаги маконлар ва Сугд билан билан боғловчи йўллар тизимида асосий ўрнни бошлайди[2].

Термиз шаҳрининг барпо этилиши ҳақида манбаларда турлича маълумотлар келтирилган. Тарихчи Ат Табарий Термизнинг барпо этилиши масаласига тўхталиб, ўз асарининг бир жойида Термизни Александр Македонский барпо этган 12 та шаҳарларнинг бири сифатида қайд қилса, бошқа жойда бу шаҳар сосоний ҳукмдор Кубод (489-581) томонидан барпо этилганлиги ҳақидаги маълумотларни келтириб ўтади[3]. Ҳофиз Айрим "География" асарида Термизга Александр Македонский асос солганлиги ҳақида маълумот берилади[4]. Маҳаллий манбаларда эса Александр истилоси давригача бу ерда шаҳарнинг бўлганлиги қайд этилган[5].

Айрим маълумотларга кўра Термиз шаҳри номи Юнон Бактрия подшоҳи Деметрий II номидан келиб чиққан. Хитой манбаларида бу шаҳар "Та ми" шаклида келтирилади[6].

Илк ўрта асрларда Термиз вилояти Термиз шаҳрини ва унга тегишли бўлган маконларни ўз ичига олган йирик мулк ҳисобланган. Берунийнинг маълумотида кўра, кўнрақ бўлган даврда Термиз ҳукмдорлари "Термизшоҳ" унвонига эга бўлганлар[7].